

KOMPETENTLI YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY SHAKLLANTIRISH

Meliboyev Tavakkal Turg'unovich

Qo'qon DPI Inklyuziv ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

Tojiboyeva Dilmura Odiljon qizi

Qo'qon DPI Maxsus pedagogika yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *ushbu maqolada kompetentlik tushunchasi, "stressga chidamli", "komanda ishiga layoqatlilik", "kreativlik" kompetentsiyalari, "muzokara olib borish", "biznes-reja tuzish" kompetentsiyalari, O'qitish jarayonida o'quvchilarni faollashtirish kabilar aks etgan.*

Kalit so'zlar: *kompetentsiya, kasbiy yondashish, "stressga chidamli", "komanda ishiga layoqatlilik", "kreativlik" kompetentsiyalari, "muzokara olib borish", "biznes-reja tuzish" kompetentsiyalari.*

"Kompetentsiya" atamasi keng ma'noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo'llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Lotincha "campetere"- muvofiq bo'lmoq so'zidan kelib chiqqan.

Hozirgi kunda "kompetentsiya" atamasi turli sohalarida qo'llaniladi: huquqshunoslik, tilshunoslik, madaniyat sohalarida, shuningdek tashkilot, muassasa yoki kompaniyaning muhim kompetentsiyalari. Lekin xodimlarni boshqarish nuqtai nazaridan "kompetentsiya" atamasi qiziqtiradi, shuning uchun xodimlarning kasbiy kompetentsiyasi haqida fikr yuritimiz.

Amerikalik psixolog va inson motivatsiyasi tadqiqotchisi Devid Makliland tashkilot, muassasa yoki kompaniyaga kompetentli yondashuvning boshlanishida shuni ta'kidlaydiki, "Inson shaxsi o'rganilayotganda nomzod yoki xodim o'zining kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlari haqida to'g'ri javob bermaydi, chunki odam doimo o'zining meniga yuqori baho beradi, shuning uchun kompetentli yondashuv tashkilot, muassasa yoki kompaniya administratsiyasi tomonidan qonun doirasida ishlab chiqilishi kerak.

Xodimlar bilan ishlashda kompetentli yondashuv xodimlarni tanlash, baholash, o'qitish va rivojlantirishga qaratilgan. Bunda aniq xodimning tegishli kasbiy kompetentsiyaga ega ekanligi va darajasi aniqlanadi. "Kasbiy kompetentsiya" atamasi shunday izohlanadi: "bu xodimning lavozim talablariga muvofiq ishlash qobiliyatidir": Kasbiy kompetentsiyalar shaxsiy tavsiflar kabi bayon etilishi mumkin, masalan, "stressga chidamli", "komanda ishiga layoqatlilik", "kreativlik" kompetentsiyalari, xuddi shunday egallagan malakalari kabi ko'rsatilishi ham mumkin, masalan: "muzokara olib borish", "biznes-reja tuzish" kompetentsiyalari.

Lavozim kompetentsiyasi ro'yxatini shakllantirishda quyidagi ikkita qoidani yodda tutish lozim:

- fe'l-atvori (bevosita ko'rish mumkin bo'lgan);
- aniq jihatlari (kompetentsiya darajasini aniqlashdagi asos) Kasbiy kompetentsiya namunalaridan bir nechasini keltiramiz: "Ishontira olish" kompetentsiyasi.

Aniqlash: Boshqalarga ta'sir ko'rsatib, ularni o'z qaror va harakatlariga ko'ndirish. "Tashabbuskorlik" kompetentsiyasi. Aniqlash: harakatni boshlab berish va shaxsiy ijobiy jihatlari bilan voqeaga samarali ta'sir ko'rsata olish. Doimo izlanishda bo'lish, yangi vazifalarni, qo'shimcha ishlarni o'z zimmasiga olish Odatda har bir lavozim uchun 5-10 ta asosiy kasbiy kompetentsiya belgilanadi. Ular bayon etiladi. Bunday holatlarda rahbar tomonidan test savollari shakllantirilsa maqsad muvofiq bo'ladi. Berilayotgan test savollarining har biri ma'lum kompetentsiyaga moslashtiriladi. Test hodimlarning ushbu kompetentsiyalarni qanchalik egallanganliklarini ko'rsatadi. Test natijalariga ko'ra xodimlarning kompetentsiyani egallash darajalari aniqlanadi, masalan: Kompetentli yondashuv quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

- xodimlarning egallagan lavozimiga munosibligini baholash;
- ishga qabul qilishda yangi loyihani amalga oshirishda hodimlarni tanlash, vakant lavozimga nomzodni tanlash;
- hodimlarni ma'lum vaqtda attestatsiyadan o'tkazish, kamchilik aniqlanganda qo'shimcha o'qitish. Bundan tashqari, baholash omili sifatida kompetentsiya bilan ishlash, ishxonaning hamma uchun yagona tasdiqlangan standartlari asosida xodimlarning real tavsifnomalarini va malakalarini baholash imkonini beradi. Xodimning ish tajribasini baholash, shuningdek og'zaki suhbat o'tkazish ko'pincha bir tomonlama amalga oshiriladi va har doim to'g'ri bo'lavermaydi. Talab etiladigan kompetentsiyalarning mavjudligiga o'tkaziladigan test quyidagi savollarga to'liq javob bera olishi lozim bo'ladi, masalan: "Xodim tashkilot, muassasa yoki kompaniyamizdagi vazifalarni biz talab qiladigan darajada bajara oladimi?" "Unda yetarli tajriba, zaruriy tayyorgarlik, alohida malaka va shu kabilar bormi?". Umuman olganda kompetentli yondashuv - bu tashkilot, muassasa yoki kompaniyaning rivojlanishi va gullab-yashnashi uchun asosiy omildir. Ish jarayonini yuqorida keltirilgan tartibda tashkil etilsa, biz jamiyat rivojlanishiga o'zimizning munosib darajada hissamizni qo'shishimiz mumkin.

O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishda elektron ta'lim resurslaridan maksimal foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'quv va didaktik materiallarga qo'shimcha tarzda tasviriy-vizual vositalar (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, grafiklar) ham kiradi. Ular umumiy va keng qamrovli tasavvurlarni vujudga keltirishni osonlashtiradi. SHuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audio-vizual vositalar texnologik jarayonlar va funktsiyalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi. Predmet vositalari tasvir va matnlarni yozib olish, saqlash imkonini beradi. Ularga doska, flipchart, kodoskop (proektor) kamera va kompyuterlar kiradi. Tajriba ishi sohasiga tegishli kerakli tajriba uskunalari, namunalar, jihozlar va asboblarni nazariy dars yoki amaliy mashg'ulot paytida didaktik funktsiyaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin. Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad soha va usullarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. O'qituvchi o'quv va ko'rsatmali vositalarni ishlata olishni, ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni mustaqil hal qila olishi kerak. O'quv materiallari bir paytning o'zida didaktik materiallar sifatida, ya'ni o'qitish va o'rganish uchun ishlatiladi. Agar o'quv va didaktik materiallar yetarli

bo'lmasa, u holda o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi hamda nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirib tayyorlanishi kerak.

O'qitish jarayonida o'quvchilarni faollashtirish - shuni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash usullarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik, o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadi. O'quvchilarning faolligi ularning o'quv materialni egallab olishida o'quv, tajriba xonasi sharoitlarida topshiriqlarni bajarishdagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Faollilik o'quvchilarning o'quv va mehnat faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish bilan mustahkam bog'langan. Faol usullarini tanlash birinchidan, darsdan ko'zda tutilgan o'quv maqsadlariga bog'liq. Masalan, agar darsning maqsadi yangi bilimlarni egallashdan iborat bo'lsa, o'qituvchi bu bilimlarni o'zi bayon qiladi yoki o'quvchilarning o'quv adabiyotlari va boshqa materiallar bilan mustaqil ishlashini tashkil qiladi. Ikkinchidan, ta'lim usullarini tanlash o'rganiladigan fanning mazmuni va darsning aniq o'quv materialiga bog'liq bo'ladi. Bir mashg'ulotning o'zida bir nechta faol usullar qo'llanilishi mumkin. Uchinchidan, o'quvchilarning ilgarigi tayyorgarlik darajasiga va shaxsiy tajribasiga bog'liq. Agar yangi o'quv material o'quvchilarga butunlay notanish bo'lsa, o'qituvchi buni o'zi bayon qiladi, buni didaktik vositalar va tajribalarni ko'rsatish bilan qo'shib olib boradi. Ta'lim oluvchilarning bilim olish, mustaqil ishlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ongli faolligi, mustaqilligi hamda ijodkorligini, o'quv bilish faoliyati natijasining sifatini xarakterlaydi.

Faollik-ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ishharakat usullarini turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga imkon beradi. O'qitish jarayoni. O'quvchilarning mustaqil izlanuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar dars ishlanmalari hamda texnologik xaritalari asosida o'qitish jarayoni tashkil etiladi. Mashg'ulotlar asosini mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini bajarish tashkil etadi. Har bir mashg'ulot o'quv maqsadiga to'la erishish uchun qo'shimcha mashg'ulotlar ham o'tkazilishi mumkin. O'quvchilarga mustaqil bilish, fikrlash va ijodiy izlanishga majbur qiladigan, muammoli hayotiy dalillarga asoslanadigan vaziyatli topshiriqlarni berish maqsadga muvofiqdir. O'quvchi topshiriqlarni ijodiy fikrlash va mustaqil ishlash orqali bajarishlari lozim. O'qituvchilar mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini bajarish bo'yicha o'quvchilarning intilishlarini olqishlashi hamda to'g'ri yo'naltira olishlari lozim. O'quvchi yakka xolda samaraliroq ishlaydimi; yoki bir necha kishidan iborat guruh bilan birgalikda ishlashni yoqtiradimi; yoki unga elek-tron darsliklardan foydalanish qulayroqmi buni o'qituvchi yaxshi bilishi kerak. O'quvchi topshiriqni o'zi anglashi va uni bajarishga harakat qilishi, o'qituvchi esa, o'z navbatida, o'quvchilarning mustaqil izlanish olib borish ko'nikmalarini, o'tilgan materiallarni yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni izlab topish qobiliyatlarini rivojlantirishga undashlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Oppakhho'jayev, Son Of Khojikhujja Azimjon. "Technologies For Developing Inclusive Readiness Of Families Based On A Competent Approach." Asian Journal Of Multidimensional Research Issn: 2278-4853.
2. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "Inclusive Education System Progress of the Process." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 199-206.
3. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja, and Muxammadjonov Shohruhbek Shuxratbek o'g'li. "INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI." Science Promotion 1.1 (2023): 50-57
4. Turgunovna, Yuldoshova Dilbar, and Oppoqxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g. "Pedagogical Mechanism Of Preparing Future Teachers For Professional Competence Formation." Onomázein 62 (2023): December (2023): 2186-2191.
5. Muhammadjonova, Dilafruz. "Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalardning sezgi va idrok xususiyatlarning o'ziga xosligi." Science promotion (2023).
6. Muhammadjonova, Dilafruz. "ISSUES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TEACHING WEAK HEARING CHILDREN TO WRITE." Science promotion (2023).
7. Muhammadjonova, Dilafruz. "SPEECH DEVELOPMENT OF DEAF CHILDREN." GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) (2023).
8. Solievna, Mirbabayeva Nodira, and Abdusalomova Feruza Shokirjan Daughter. "PROTECTION OF THE RIGHTS OF CHILDREN WITH DISABILITIES IN OUR REPUBLIC." Science Promotion 1.1 (2023): 51-56.
9. Soliyevna, Mirboboyeva Nodiraxon. "Thoughts about The Stages Of Development Of Oligophrenopedagogy And Mental Retardation." Confrencea 7.7 (2022): 102-105.
10. Mirbabayeva, Nodiraxon, and Sarvinoz Siddiqova Sarvinoz. "AQLI ZAIF BOLANING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TASNIFI." Current approaches and new research in modern sciences 2.6 (2023): 32-36.
11. Islomjon, Haydarov, and Odilova Rushanabonu. "ORAL SPEECH AND ITS DEVELOPMENT FEATURES." Open Access Repository 9.11 (2023): 206-209.
12. Islomjon, Haydarov, and Odiljonova Saminakhan. "DIFFERENTIATION OF SENTENCES IN SCHOOL FOR HEARING IMPAIRED CHILDREN THE CONTENT AND ORDER OF THE WORK CARRIED OUT ON." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 1071-1075.
13. Islamjan, Haydarov. "FORMATION OF ENVIRONMENTAL COMPETENCE OF HEARING-IMPAIRED STUDENTS IN EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN SCIENCE." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 536-540.
14. Islomjon, Haydarov. "In this article, the importance of excursions in specialized educational institutions for students with hearing impairments and ways to shape their knowledge of Natural Science through excursions. Information is provided about the

corrective-pedagogical o." Onomázein hosts unpublished articles derived from scientific research 1963 (1958).

15. Zhurayevich, Yuldashev Sadirboy. "TECHNOLOGIES FOR ELIMINATING SHORTCOMINGS IN ORAL SPEECH IN LESSONS OF VISUAL ACTIVITY." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 378-382.

16. Jorayevich, Yuldashev Sodirboy, and Mukhammadjonov Shahruxh Shukhratovich. "TECHNOLOGIES OF DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH IN FINE ARTS LESSONS." *Academia Science Repository* 4.5 (2023): 345-348.

17. Jurayevich, Yuldashev Sodirboy. "PEDAGOGICAL PROCESSES CARRIED OUT WITH CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS OF PRESCHOOL AGE." *Science Promotion* 1.1 (2023): 75-81.

18. Murodjon, Xovodillayev, D. Abdurazoqova, and Ortiqov Muhtorilla. "9-13 YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARDA BOG'LANGAN NUTQNI SHAKLLANTIRISH ISHLAR TIZIMI." *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE*. Vol. 2. No. 19. 2023.

19. Xovodillayev, M. X., and Nazorova Qizlarxon. "NUTQ NUQSONLARINI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH ISHLARINI TASHKIL ETISH." *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE*. Vol. 2. No. 19. 2023.

20. Xovodillayev, M. X., Qodirov Dilyor, and Xudoyberdiyev Javohir. "OG'IR INTELEKTUAL NUQSONGA EGA BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI." *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE*. Vol. 2. No. 19. 2023

21. Muhtorova, M. B., and Islomova Zahrohon. "O 'ZBEKISTONDA BOLA HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI." *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION* 3.25 (2024): 130-137.

22. Muxtorova, M. B., and Toshkentbayeva Nafosat. "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOLA HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING QONUNYIY KAFOLATLARI." *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION* 3.25 (2024): 124-129.

23. Muhtorova, Maftuna, and Gulmira Avazxonova. "MAXSUS TA'LIM MUASSASALARIDA BOLA HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASHNING AMALDAGI XOLATI." *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION* 3.25 (2024): 92-97.

24. Muxtorova, M. B., and Muhammadjonov Shoxrux. "O 'ZBEKISTONDA BOLA HUQUQLARINI HIMOYA QILISH ASOSLARI." *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION* 3.25 (2024): 87-91.

25. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "DEFEKTOLOGLARNI OILA BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHDA SHARQ MUTAFFAKIRLARINING QARASHLARI." *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION* 3.25 (2024): 104-111.

26. Raxmonovna, Kabirova Zarnigor. "DISGRAFIYADA OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR." *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION* 3.25 (2024): 98-103.

27. Islomjon, Haydarov. "ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR HISSIYOTINING O'ZIGA HOS XUSUSIYATLARI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 112-116.
28. Xovodillayev, Murodjon. "LOGOPEDIK MASHGULOTLARNI TASHKIL ETISHDA O'YINLARNING KORREKSION AHAMIYATI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 117-123.
29. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "Contents of Logopedic Rhythm Exercises Conducted with Children Who Stutter." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 36-39.
30. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "Methodology of Memory Development in the Process of Working on the Passive and Active Vocabulary of Children with Undeveloped Speech." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 40-44.
31. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIQQATINING TURLARI VA XUSUSIYATLARI." Confrencea 12.12 (2023): 162-168.
32. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "BOLALARDAGI NUTQIY RIVOJLANISHNING BUZILISHLARI VA NUTQNING TOLIQ RIVOJLANMAGANLIGI." Confrencea 12.12 (2023): 102-108.
33. Raxmonovna, Kabirova Zarnigor. "DISGRAFIYADA OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 98-103.
34. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, Babayeva Azizabonu Hamidjonovna, and Ibrokhimova Sarvinoz Anvarjonovna. "TEACHING SPEECH FORMATION TO PRESCHOOL-AGE DYSARTIC CHILDREN." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 52-55.
35. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, Havodullayev Murodjon, and Ibrokhimova Sarvinoz Anvarjonovna. "ORIGIN OF DYSLALIA AND WAYS OF ITS ELIMINATION." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 48-51.
36. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, and Babayeva Azizabonu Hamidjonovna. "USE OF WORD FORMATION MODELS IN DYSARTHIC CHILDREN." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 61-64.
37. Zarnigor, Kabirova, Erkaboyeva Ozoda, and Raimjonova Gulsanam. "MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALAR IDROKINI TEKSHIRISH YO'LLARI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.
38. Daughter, Husanova Iroda Ulugbek. "LOGOPEDIC WORK WITH DYSARTHIC CHILDREN." Science Promotion 1.1 (2023): 117-122.
39. Dilnavoz, Ikromova. "INCLUSIVE EDUCATION IN UZBEKISTAN. ANALYSIS AND DESCRIPTION OF THE PRINCIPLES OF INCLUSIVE EDUCATION." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.12 (2023): 1035-1041.

40. Nigina, Abdunazarova, and Yolchieva Dilfuza. "TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF SPEECH LOGIC IN NATIVE LANGUAGE LESSONS WITH STUDENTS OF SPECIAL INSTITUTIONS." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.12 (2023): 1086-1090.

41. Mashhura, Boltayeva Gulsevar Xoldoraliyeva Ra'no Tursunova, and Abdurahimova Munisa Meliqo'ziyeva Shahzoda Turg'unboyeva Zulxumor. "JAHON MAMLAKATLARI TA'LIMINING TASHKIL ETILISHI VA TARAQQIYOTI MASALALARINING TAVSIF ETILISHI." *Confrencea* 12.12 (2023): 563-571.

42. Turg'unboyeva, Zulxumor. "O'ZBEKISTONDA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI." *SCIENCE PROMOTION* (2023)

43. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EDUCATION AND PSYCHOLOGICAL COMPETENCE AND FORMATION OF FUTURE LOGIC THERAPISTS." *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)* (2023).

44. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "STAGES OF DEVELOPMENT OF TEACHER PROFESSIONAL COMPETENCE." *NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer ReviewedJournal* (2023).

45. Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "Methods of Pedagogical-Psychological Correction of Future Logic Therapists with Special School Children." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 1.10 (2023): 37-40.